



ZEBO MIRZO SHE'RIYATI LEKSIKASIDA O'Z VA O'ZLASHMA QATLAM LEKSEMALARI TAHLILI

Hakimova Nargiza Shuhrat qizi

Qarshi davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zebo Mirzo she'riyati leksik qatlam nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shoira ijodida qo'llangan o'z qatlam va o'zlashma qatlam leksemalarining uslubiy, semantik hamda badiiy-estetik xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot davomida she'riy matnlarda uchraydigan arab, fors-tojik va rus tilidan o'zlashgan so'zlarning qo'llanish o'rni hamda ularning poetik ma'no yaratishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, milliy ruh, obrazlilik va individual uslubni shakllantirishda o'z va o'zlashma leksemalarning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Zebo Mirzo she'riyati tilining boyligi, poetik tafakkur va leksik birliklardan foydalanish mahorati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Zebo Mirzo she'riyati, leksika, leksema, o'z qatlam, o'zlashma qatlam, poetik til, badiiy uslub, semantik tahlil, arabcha o'zlashmalar, fors-tojikcha so'zlar, poetik obraz, individual uslub, badiiy-estetik vositalar.

Аннотация: В данной статье анализируется поэзия Зебо Мирзо с точки зрения лексического слоя. Изучаются стилистические, семантические и художественно-эстетические особенности исконных и заимствованных лексем, используемых в творчестве поэта. В ходе исследования подчеркивается роль слов, заимствованных из арабского, персидско-таджикского и русского языков, в поэтических текстах и их значение в создании поэтического смысла. Также анализируется роль исконных и заимствованных лексем в формировании национального духа, образности и индивидуального стиля. В результате исследования научно обосновывается



богатство языка поэзии Зебо Мирзо, его поэтическое мышление и умение использовать лексические единицы.

Ключевые слова: Поэзия Зебо Мирзо, лексика, лексема, собственный слой, заимствованный слой, поэтический язык, художественный стиль, семантический анализ, арабские заимствования, персидско-таджикские слова, поэтический образ, индивидуальный стиль, художественно-эстетические средства.

Annotation: This article analyzes the poetry of Zebo Mirzo from the point of view of lexical layer. The stylistic, semantic, and artistic-aesthetic features of the native and borrowed lexemes used in the poet's work are studied. During the study, the role of words borrowed from Arabic, Persian-Tajik, and Russian in poetic texts and their significance in creating poetic meaning are highlighted. The role of native and borrowed lexemes in the formation of the national spirit, imagery, and individual style is also analyzed. As a result of the study, the richness of the language of Zebo Mirzo's poetry, poetic thinking, and the skill of using lexical units are scientifically substantiated.

Keywords: Zebo Mirzo's poetry, lexicon, lexeme, own layer, adopted layer, poetic language, artistic style, semantic analysis, Arabic borrowings, Persian-Tajik words, poetic image, individual style, artistic and aesthetic means.

O‘zbek tilining lug‘at boyligi bugungi kunda ikki qatlamdan – o‘z va o‘zlashma qatlamdan iborat.

Tilning leksik zaxirasi ikki xil usul bilan boyiydi:

1. O‘zbek tilining ichki imkoniyati asosida boyishi – o‘z qatlam.
2. Tashqi imkoniyat asosida boyishi – o‘zlashma qatlam.

O‘zbek tilining lug‘at tarkibidagi so‘zlar tarixiy manbalari jihatidan turkiy qabilalarning tillarigagina borib taqalmaydi. O‘zbek tili leksikasining taxminan yarmini turkiy so‘zlar tashkil qilgani holda, qolgan qismini fors-tojik tillaridan, arab tilidan, mo‘g‘ul tilidan, rus tili va rus tili orqali G‘arbiy Yevropa tillaridan kirgan



soʻzlar va oz miqdorda hind, urdu, pushtu, xitoy va boshqa tillardan kirgan soʻzlar tashkil qiladi.

Oʻzbek tilining lugʻat tarkibida eroniy tillarga oid soʻzlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Oʻzbek tiliga fors-tojikcha soʻzlarning koʻp miqdorda kirishi hozirgi bizning kunlarimizdagi hodisa emas. Bu – oʻzbek xalqining uzoq tarixi bilan bilan bogʻliq. Ikki qardosh xalq boʻlgan oʻzbek va tojik xalqlari asrlar davomida deyarli bir xil iqtisodiy-siyosiy va madaniy sharoitda yashab kelganlar.

Eroniy tillardan turkiy tillarga soʻz oʻzlashishining sabablari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

1. Eramizning boshlaridayoq bir territoriyada birga hayot kechirish natijasida mavjud boʻlgan iqtisodiy, xoʻjalik sohasidagi aloqa oʻzaro olish uchun qulay zamin boʻlgan.

2. Oʻrta Osiyoda dam fors-tojik davlati, dam turkiy xoqonlar davlati hukm surishi natijasida davlat ishlari, maʼmuriy yozishmalar, rasmiy qogʻozlar goh tojikcha, goh turkiy tilda olib borilgan. Hatto, Buxoro va Quqon xonligida soʻnggi davrlargacha ish qogʻozlari ikki tilda olib borilgan edi.

3. Adabiyot ikki tilda – oʻzbek va tojik tilida taraqqiy etgan. Koʻpgina mashhur yozuvchilar ikki tilda yozgan. Natijada tojikcha soʻzlar bevosita tojik adabiyotidan ham, oʻzbeku adabiyotidan ham xalq tiliga kirib, oʻzlasha borgan.

4. Oʻrta Osiyodagi, shu jumladan Oʻzbekistondagi, aholining kattagina qismi ikki tilda soʻzlashgan. Bu bir tilda ikkinchi til elementlarini ishlatishga zamin boʻlgan.

5. Ayrim joylarda turkiy va eroniy tillar, dialektlar chatishganida, Oʻzbekiston hududida turkiy (oʻzbek) til ustun chiqsa ham, baʼzi eroniy til elementlari oʻzbek tilida saqlanib qolgan. Oʻz navbatida turkiy til elementlari tojik tilida ham saqlanib qolgan.

Arabcha soʻzlarning oʻzbek tiliga oʻzlashishi VII – VIII asrlarda arablarning Oʻrta Osiyoni zabt etishlari bilan bogʻliq. Arablar bosib olgan hududlarida mahalliy



til va yozuvlarni yo‘q qilib arab tili, yozuvi hamda islom dinini majburan qabul qildiradilar. Davlat, sud ishlari, fan, adabiyot arab tilida yoziladigan bo‘ldi. Olimlar o‘z asarlarini arab tilida yozdilar. Shu tariqa davlat tuzilishi, huquq, ilm-fan, din, she‘riyat bilan bog‘liq terminlar turkiy tillarga o‘zlashdi.

O‘z qatlam. “O‘z qatlamga o‘zbek tilining o‘ziniki bo‘lgan, shuningdek turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar kiradi. O‘zbek tili lug‘at sostavida turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar anchagina qismni tashkil etadi” [1, 21]. O‘z qatlam sof turkiy so‘zlar hamda o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida o‘zlashma so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shish natijasida yangi so‘zlarning hosil qilinishi natijasida boyib boradi. Bunday so‘zlar adib she‘riyati leksikasida anchagina.

1. Turkiy so‘zlar o‘zbek mumtoz she‘riyatida, zamonaviy she‘riyatda ham faol qo‘llanadi. Zebo Mirzo she‘rlarida bugungi kunda adabiy tilimizda, nutqimizda faol bo‘lgan so‘zlarning ko‘p qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin: *til, olov, ikki, oydin, borliq, tomon, men, barcha, bor, qamish, bo‘yin, kim, chekmoq, bosh, yuz, uch, qiynamoq, sotmoq, ho‘kiz, deb, bilgan, o‘ydilar, chiqdi, tilar, berdi, bobo, angla, olsam, yozgan, egmoq, ko‘z, qora, anglayolmay, oyoq, kechdi, ming, topmadi, o‘ylading, sindi, go‘zal, po‘st, tosh, yulduz, el, kulib, tug‘ildi, sevasiz, kulgich, sevgi, yig‘latadi, qizamiq, qulluq, tirik, qorachiq, bolta, boshi egik, tog‘, o‘tmish, kelajak, yelka, qanot, tosh, erkin, o‘g‘il, soch, bayram, yil, yurak, ona.*

Umrin yo‘li yetar osmon ortiga,

Dunyo eshigiga yetmaydi qo‘lim,

Mening ko‘nglim qolgan tog‘lar yurtiga,

Sen mening uzrimni aytib bor o‘g‘lim. (“Umrin”, Zebo Mirzo)

Zebo Mirzo she‘rlarida adabiy tilda kam qo‘llanuvchi, ammo poetik nutqda faol qo‘llanadigan turkiy so‘zlar anchagina: *yovuq, ayro, qoqla, qulf ursa, yuz burmoq, evrildi, tuyg‘u, do‘ngay, qarog‘, netay, su (suv), dolg‘ali, darg‘a, og‘och,*



bitmish, sirmoq, ilik, yuzlan, chulg'adi, uzra, kelur, tark etib, oldga jilmoq, izlarsan, qul, yelmoq, emranur, og'u, sorlandi, suluv, demasman, kelgay, tushgay, topgay, yorishgay, yaratmishdir, o'lmagaysan, bag'ir, arg'imchi, ezgu, chechak, tegra, dudoq, bol, chorlar, bilgisiz, ko'k, barq, do'ndim, lol erur, aqcha sanamoq, qayon, xo'rsiniq, yog'iy, sipqorar, eranlar, ano.

Qahr qilsam, toshlar otsam, kechirmayin,

To qoyaga parchinlangan telbadayin

Ishqingni bir afsun kabi pichirlayin...

Ruhim achchiq ishqqa tashna,

bir xanjarman –

Tahlikali, to'rt tomoni o'tkir, keskir

Tikkalayin hayotingni ikki bo'lgan,

Ikki dunyong evaziga berilgan sir.

Barmog'ingga zanjir urgan qulf emasman.

Men – umringga sirtmoq solgan xalqadirman. (*"Ishq"*, Zebo Mirzo)

O'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida. Bunda o'zlashma so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida so'zlar yasalishi mumkin. Masalan: sportchi, futbolchi.

Zebo Mirzo she'riyati leksikasida ham o'zlashma so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida yasalgan o'zbekcha so'zlar uchraydi: *sozchi, ogohlik, sipolik, irodasiz, faqirlik, elfurush, hadsiz, g'oliblik, mag'lublik, la'natlayman, iymonsizlar, sokinlik, jarohatli, uzrona, nohaqlik, madhiyaboz, poklik, soxtaliklar, xoinlik, zamondosh, savdoli, telbalarcha, foydasiz, vayronalik, iinqilobchi, noiblikka, marhamatli, g'animlikka, shahidlik, hurlik, viqorsiz, befarqlik, millatchi, vafosiz,*



parvosiz, sarxushlikda, halqasimon, badbinlik, xudkushlik, sokinlikka, ma'yusligin, bedorlikni, do'stlikka, telbandi, rostladi, beg'uborliqqa, shodmonlik, g'ozalab, andozalab, baxtsizligidan, fig'onsizlar, g'ariblik, chamansiz.

Fors-tojikcha o'zlashma so'zlar Zebo Mirzo she'rlarida anchagina. Tahlillar jarayonida ma'lum bo'ldiki, adib qo'llagan eroniy qatlamga mansub so'zlar, асосан, ot, sifat turkumiga mansub so'zlardir.

Shoira lirikasida qo'llanilgan adabiy tilda, so'zlashuv nutqimizda faol so'zlar: *ovvora, dil, banda, dor, dard, zor, nola, nay, balo, yor, do'st, bevafo, vafo, xudo, mard, nodon, baland-past, kift, charx, chora, pushaymon, sardoba, rost, bog'bon, oftob, barg, gul, panoh, dod, pand, xurmo.*

Adib she'rlarida kitobiy, badiiy uslubga xos, poetik nutqda qo'llanadigan yoki eskirgan so'zlar ham talaygina: *shoyadki, gumroh, zulf, giribon, kas, porso, ohanrabo, g'oza, kahkashon, kulba, dushvor, shikor, shabu ro'z, badxo', otash, andom, nozanin, kaj, sor, kajrav, mahvash, donish, jola, parkand, oshyon, dast, cho'ng, pora, bemor, shovvoz.*

Azizim,

Ne uchun maysa emasmiz,

Yellar o'pganida suykilib o'tgan.

Ne uchun, ne uchun daraxt bo'lmadik,

Ildizi, shoxlari chirmashib ketgan..

Ariqlar bo'yida giyoxdek o'ssak,

Suvlarda tushimiz eshilarmidi?

Adirlar ortida shamol bo'lsaydik,

Ko'klarda ruhimiz qo'shilarmidi? ("Ishq", Zebo Mirzo)



Zebo Mirzo ham o‘z she’rlarida arabcha so‘zlardan unumli foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

So‘zlashuv nutqimizda, adabiy tilda faol qo‘llanadigan arabcha so‘zlar: *husn, mulk, muddao, harom, nur, duo, shifo, davo, olam, qadam, sabab, hayron, sir, hukm, muallima, qahr, havas, Sharq, jahon, Olloh, iymon, Haq, umr, jism, zulm, xulq, hayvon, nasl, sehr, muborak, qurbon, nazar, hasrat, saodat, samo, sahar, muhabbat, jannat, tilovat, mohiyat, shoir, kitob, tabassum, g‘am,*

Kitobiy, poetik, badiiy uslubga xos, arxaik so‘zlar: *ash‘or, abyot, a‘mol, safolat, maxmur, ag‘yor, qismat, azal, faromush, baqo, arsh, sulh, hidoyat, moziy, najjor, noib, anvoyi, favvora, uvays, zurriyod, sharob, xasta, sado, sanam, safo, falak, madda, jafo, zot, hikmat, murshid, analhaq, pir talab, qismat, intiho, ibtido, amr, habib, toat, kufr, zikr, taqvo, tasbeh, lavha, g‘arib, g‘aflat, qalb, halovat, ruh, malomat, tazarru, uqubat, aysh, kibr, kibbor, ishq, sharobi antahur, hijron, g‘arib, g‘ofil, ziyo, zulumot, siyrat, alloma, ishrat, va‘z, barq, po‘rtaxol, dayr, sirot, razolat, inoyat, manfur, iloh, pinhon, azimat ahli, tahayyul.*

Men begona emasman Hind,

Kashmirga ham,

Bobom ilki yetgan mulki sultondir bu.

Jaloliddin kelgan bo‘lsa Sindni kechib,

Demak unga tangri bergan imkondir bu. (“Hindda turib Vatan sog‘inchi”)

Mug‘ulcha so‘zlar: *tangri, manglay, cherik, bahodir.*

Bilaman: men uning tengi emasdim,

Lekin sevdim tengsiz muhabbat bilan.

Hijron tunlarida bor edi qasdim,



Men uni o'qidim yoniq dard bilan.

Qachondir yurakka jazillab bosgan

Ishq edi – Quyoshning tosh uzra yo'li.

Bilaman: men unga hech kim emasman,

U – menga Tangrining uzalغان qo'li!

Bilaman... hammasin endi bilaman,

Meni barbod qilgan shu ishqqa qasam:

Xudo haqqi sevdim!

Xudo haqqi... kam,

Uni deb qanchalar to'kilgan bo'lsam!

Hindcha: *nilufar, nargis.*

Dunyodagi eng go'zal gul *nilufar,*

Dunyodagi eng suluv qiz *Nilufar. (Nilufar)*

Zebo Mirzo she'rlarida fors-tojik tilidan o'zlashgan *be-* old qo'shimchasi yordamida hosil qilingan leksik birliklarni ko'p uchratdik: *benishon, berahm, behurmat, bedaxl, beomon, beun, beqaror, beqadr, beibo, bebaqo, bemavrid, benishon, bemuddao, benaf, bebahor, bezabon, beor, beminnat, benomus, bebismillo, beayov, berahm, befarq, bexanjar, benishon, bevaqt, bebok, bevafo, beso'roq, betinim, beqayg'u, beparvo, bexabar, bexon, behudud, benasib, beg'ubor, benavo, benishon, bexudo, behud, beshak, beajal, bechora, bejon, beqanot, bezuryod, bexabar, beishq, behol, bequt, besha'n, beomon, benajot, bemurod, beriyo, beishq.*



Aytish mumkinki, Zebo Mirzo o‘z she’rlarida qo‘llanilgan o‘zlashma qatlamda arabiy so‘zlar son jihatdan ustunlik qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш. Шоабдурахмонов, М. Асқарова, А. Ҳожиев ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1980. – Б.121.
2. Зебо Мирзо. Ишқ. Сайланма. – Тошкент: Академнашр, 2011. – 128 б.
3. Nafasova V.T. Antropogidronimlar haqida ayrim mulohazalar. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2024. – № 11/4. – В. 158-162.
4. T.Nafasov, V.Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati (maktab o‘quvchilari, kollej va litsey talabalari uchun). – Toshkent, 2007.
5. Nafasova V.T. Qashqadaryo viloyati etnogidronimlari tadqiqiga doir. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2025. – № 12. – В. 190-194.